III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 21 876,8 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 103,9 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 21 136,3 mlrd. so‘mni (103,9 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 643,0 mlrd. so‘mni (102,8 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 97,5 mlrd. so‘mni (105,7 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Quyi Chirchiq (107,8 %), Chinoz (105,1 %), Piskent (104,7 %), O‘rta Chirchiq (104,6%) va Bo‘ka (104,3%) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Yangiyo’l (101,8%) va Chirchiq (101,8 %) shaharlarida past o‘sish sur’atlari bilan yakunlandi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi

	2021- yil yanvar-sentyabr, mlrd. so‘m	*O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da*	*Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da*
Toshkent viloyati	**20 210,1**	**102,4**	**92,4**
shaharlar:			
Nurafshon	51,9	101,9	99,7
Olmaliq	57,1	98,9	97,2
Angren	251,3	101,8	93,6
Bekobod	273,7	102,0	99,5
Ohangaron	43,3	102,1	98,8
Chirchiq	91,6	101,5	99,7
Yangiyo‘l	26,2	102,0	98,1
tumanlar:			
Oqqo‘rg‘on	1 463,6	104,1	92,1
Ohangaron	978,8	99,3	93,8
Bekobod	1 772,1	102,4	97,3
Bo‘stonliq	1 816,2	103,3	95,8
Bo‘ka	1 141,2	100,6	95,0
Quyi Chirchiq	784,4	100,6	74,5
Zangiota	1 697,5	101,7	96,4
Yuqori Chirchiq	1 224,4	100,8	93,8
Qibray	1 240,0	102,8	91,6
Parkent	1 724,1	103,5	99,4
Piskent	1 132,1	104,4	85,4
O‘rta Chirchiq	1 251,5	104,6	89,1
Chinoz	1 108,0	101,6	96,4
Yangiyo‘l	1 065,8	102,3	87,3
Toshkent	1 015,3	101,9	84,4

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajm,
mlrd. so‘mda



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining (xizmatlari)ning katta hajmi Bo‘stonliq tumanida – 1896,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bekobod va Zangiota tumanlarida mos ravishda 1821,0 mlrd. so‘m va 1760,7 mlrd. so‘m kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo‘l (26,7 mlrd. so‘m) va Ohangaron (43,8 mlrd. so‘m) shaharlarida qayd etildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar) umumiy hajmida hududlarning ulushi



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Bo‘stonliq tumanining ulushi 8,7 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bekobod (8,1 %), Zangiota (8,0 %) va Parkent (7,9 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Ohangaron (0,2 %), Nurafshon (0,2 %) va Yangiyo‘l (0,1 %) shaharlarida qayd etildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sishi 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 106,7 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 101,7 %ni tashkil qildi.

Dehqonchilik. 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 518,3 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarilib, shundan 394,7 ming tonnasini bug‘doy tashkil qildi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 1581,2 tonna pilla yetishtirildi. Shuningdek, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 279,0 ming tonna kartoshka qazib olindi (2020- yilning shu davriga nisbatan 104,8 %ni tashkil etdi), 796,3 ming tonna sabzavot (103,8 %) yig‘ib olindi, 32,1 ming tonna poliz ekinlari (104,9 %), 84,0 ming tonna meva va rezavorlar (103,8 %) hamda 73,0 ming tonna uzum (100,4 %) yetishtirildi.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish





Hududlar kesimida yig‘ib olingan don hosili tahlil qilinganda, yuqori ko‘rsatkichlar Bo‘ka (63,7 ming tonna), O‘rta Chirchiq (61,2 ming tonna) va Quyi Chirchiq (61,2 ming tonna) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Bekobod shahrida (14 tonna) kuzatildi.

Qazib olingan kartoshkaning yuqori ko‘rsatkichlari Bo‘stonliq (40,0 ming tonna), Zangiota (31,4 ming tonna), Qibray (22,5 ming tonna) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkichlar Olmaliq (0,2 ming tonna), Yaniyo‘l (0,2 tonna) va Ohangaron (0,5 ming tonna) shaharlarida qayd etildi.

Sabzavot (ming tonna)



Poliz (tonna)



Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko‘rsatkichlari Bekobod (111,3 ming tonna), Toshkent (93,1 ming tonna) va Zangiota (89,8 ming tonna) tumanlarida tashkil etgan bo‘lib, past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (0,6 ming tonna), Olmaliq (0,9 ming tonna) va Ohangaron (1,1 ming tonna) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Poliz ekinlari yetishtirish hududlar kesimida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (15363,7 tonna), Bo‘ka (4206,7 tonna) va Chinoz (1977,9 tonna) tumanlariga to‘g‘ri kelib, past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l shahar (31,9 tonna), Toshkent (69,9 tonna) va Bo‘stonliq (76,3 tonna) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Meva va rezavorlar (tonna)



Uzum (tonna)



Eng ko‘p mevalar va rezavorlar yetishtirish Qibray (12049,1 tonna), Bo‘stonliq (10280,3 tonna) va Zangiota (7927,2 tonna) tumanlarida kuzatilib, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (185,3 tonna) va Ohangaron (250,0 tonna) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Uzum yetishtirish bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Parkent (45715,2 tonna), Bo‘stonliq (5316,6 tonna) va Toshkent (3911,0 tonna) tumanlarida, eng past ko‘rsatkichlar Ohangaron (104,7 tonna) va Olmaliq (106,9 tonna) shaharlarida kuzatildi.

Chorvachilik. 2021- yilning 1- oktyabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 104,0 %ga (jami 897,1 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 104,3 %ga (408,8 ming bosh), qo‘y va echkilar 103,4 %ga (1016,2 ming bosh), otlar 105,2 %ga (53,5 ming bosh), parrandalar 101,7 %ga (15,5 mln. boshga) ko‘paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 87,3 %ni, sut ishlab chiqarishda 97,8 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 61,7 %ni tashkil etdi.

2021- yil 1- oktyabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni



Eng ko‘p qo‘y va echkilar Ohangaron (233,5 ming bosh), Bo‘stonliq (162,9 ming bosh) va Parkent (114,6 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (1,3 ming bosh), Nurafshon (3,3 ming bosh) va Chirchiq (3,9 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qibray (2587,4 ming bosh), Zangiota (1896,8 ming bosh), O‘rta Chirchiq (1708,1 ming bosh) va Piskent (1529,2 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (8,9 ming bosh) va Olmaliq (18,5 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

2021- yil 1- oktyabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o‘sish sur’ati, %da*
Yirik shoxli koramol	**897,1**	**104,0**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	77,0	101,6
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	779,1	104,4
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	41,0	100,7
Ulardan sigirlar	**408,8**	**104,3**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	25,0	108,2
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	371,0	104,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,8	100,8
Qo‘y va echkilar	**1 016,2**	**103,4**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	306,9	105,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	666,3	102,9
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	43,0	100,7
Otlar	**53,5**	**105,2**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	9,4	108,8

	ming bosh	*o‘sish sur’ati, %da*
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	41,1	103,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,0	114,8
Parrandalar	**15 496,2**	**101,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	301,2	70,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	8 373,0	104,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 822,0	100,2

Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi



Fermer xo‘jaliklari
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,8 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 8,6 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,8 %ni va 6,1 %ni, qo‘y va echkilar 65,6 %ni va 30,2 %ni, otlar 76,8 %ni va 17,7 %ni, parrandalar 54,1 %ni va 1,9 %ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 203,8 ming tonna go‘sht (2020- yilning mos davriga nisbatan 2,5 %ga ko‘p), 753,9 ming tonna sut (3,5 %ga ko‘p), 904,1 mln. dona tuxum (8,3 %ga kam) ishlab chiqarilgan.

Yirik shoxli qoramollar
(ming bosh)



shu jumladan: sigirlar
(ming bosh)



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘stonliq (81,3 ming bosh), Bo‘ka (69,6 ming bosh) va Bekobod (68,7 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (1,2 ming bosh), Chirchiq (1,8 ming bosh) va Nurafshon (2,9 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (35,6 ming bosh) va Bo‘ka (32,9 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (0,8 ming bosh) va Chirchiq (1,3 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o‘sish sur’ati, %da*
Go‘sht (tirik vaznda), *ming t.*	**203,9**	**102,5**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	5,9	100,2
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	172,1	102,2
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25,9	105,2
Sut, *ming t.*	**753,9**	**103,5**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	39,7	100,4
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	697,6	103,7
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16,6	106,1
Tuxum, *mln. dona*	**904,1**	**91,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	11,1	100,1
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	546,8	106,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	346,2	75,2

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)



2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida go‘sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p ishlab chiqargan hududlar Bo‘stonliq (20,8 ming tonna), Zangiota (18,5 ming tonna) va Piskent (17,0 ming tonna) tumanlari bo‘lsa, Yangiyo‘l (0,3 ming tonna), Olmaliq (0,3 ming tonna) va Ohangaron (0,4 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo‘stonliq (81,6 ming tonna), Yuqori Chirchiq (74,3 ming tonna), Bekobod (65,5 ming tonna) va Parkent 54,0 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan o‘rin olgan bo‘lsa, aksincha Yangiyo‘l (1,3 ming tonna) va Nurafshon (2,8 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha past ko‘rsatkichlardan o‘rin egalladi.

Tuxum (mln. dona)



Jun (tonna)



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo‘yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota (169,7 mln. dona), Qibray (152,8 mln. dona), Bo‘stonliq (86,1 mln. dona) va Yuqori Chirchiq (75,5 mln.dona) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (0,6 mln. dona), Nurafshon (0,7 mln. dona) va Olmaliq (1,0 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

Fermer xo‘jaliklari. 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3595,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 17,3 %ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktyabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 77,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 25,0 ming bosh sigir, 306,9 ming bosh qo‘y va echkilar, 9451 bosh ot, 301,2 ming bosh parrandalar mavjudligi tasdig‘ini topdi.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	yanvar-sentyabr				*2020- yanvar-sentyabriga nisbatan % hisobida*
	2020- yil		*2021- yil*		
	tonna	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %*	*tonna*	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %*	
Don	343 322	67,6	348 472	67,2	101,5
Kartoshka	27 588	10,4	27 754	9,9	100,6
Sabzavot	127 091	16,6	128 870	16,2	101,4
Poliz	4 428	14,5	4 481	14,0	101,2
Meva va rezavorlar	24 105	29,8	24 442	29,1	101,4
Uzum	25 027	34,4	25 352	34,7	101,3
Go‘sht, tirik vaznda	5 843,0	2,9	5 855,0	2,9	100,2
Sut	39 537,0	5,4	39 695,0	5,3	100,4
Tuxum, mln. dona	11,1	1,1	11,1	1,2	100,1
Jun	304,0	18,1	308,0	18,4	101,3
Paxta	67 654	74,1	70 002	48,8	103,5
Pilla	707,5	48,7	916,2	63,0	129,5